

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 2-son

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR
TARIXI

- 6 **KARAHOДЖАЕВА ДИЛОРОМ
МАМИРОВНА**
А.И. Ишанов – выдающийся узбекский
ученый-государствовед

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 13 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ**
Конституционализм и наука конституционного
права: некоторые задачи и перспективы
развития
- 24 **YULDOSHBEKOV AVAZBEK
ALISHER O'G'LI**
QODIROVA DILDORA IRKINOVNA
Xorijiy investitsiya tushunchasining
nazariy-huquqiy jihatlar

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 30 **XODJAYEV BAXSHILLO KAMOLOVICH**
Intellectual mulk huquqini boshqarish va
texnologiyalar transferini davlat tomonidan
qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy
masalalari
- 38 **XO'JAYEV SHOXJAXON AKMALJON O'G'LI**
Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya
qilishning o'ziga xos jihatlar
- 49 **SAYDIVALIYEVA XURSHIDA
XODJIAKBAROVNA**
Xorijiy davlatlarda oilaviy munosabatlarni
tartibga solishning o'ziga xos jihatlar va
oilaviy-huquqiy shartnomalar

- 61 **МУРОДЖОНОВА МОХИРАХОН
МАКСУДЖОН КИЗИ**

ИМАМОВА ДИЛФУЗА ИСМАИЛОВНА

Понятие международного договора
строительного подряда

- 70 **USMONOVA MUNISXON YO'LDOSH QIZI**

Muomala layoqatidagi nuqsonlar va uni
aniqlashdagi muammolar

- 81 **ASADOV SHAHRIDDIN FAKHRIDDIN UGLI**

Legal regulation of consulting services

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI.

AGRAR HUQUQ.

EKOLOGIK HUQUQ

- 90 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**

O'zbekistonda vodorod energetikasi sohasi
qonunchiligini takomillashtirishning ayrim
masalalari

- 97 **ХАЙИТОВ ПАНЖИ БУХАРОВИЧ**

Роль и значение объектов и субъектов
в энергетической безопасности

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.
HUQUQBUZARLIKLARNING

OLDINI OLISH.

KRIMINOLOGIYA.

JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 106 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**

Janubiy Afrika Respublikasi jinoyat
qonunchiligida jazoni yengillashtirish instituti

12.00.09 – JINOYAT
PROTSESSI. KRIMINALISTIKA,

TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA

SUD EKSPERTIZASI

- 122 **UMARXONOV AZIZXON
SHARIPXONOVICH**

Sud bosqichlarida jinoyat protsessi
ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash
asoslari

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.2./CFZO5008>
UDC: 343.1(045)(575.1)

SUD BOSQICHLARIDA JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHILARINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH ASOSLARI

Umarxonov Azizxon Sharipxonovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti mustaqil izlanuvchisi,
dotsent, yuridik fanlar nomzodi
ORCID: 0009-0000-8656-9182
e-mail: umarazizhon1@gmail.com

Annotatsiya. Fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish, ularning shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa huquqlarini qonunchilikda yanada mustahkamlash, odil sudlov tizimining chinakam mustaqilligi va ochiqligini ta'minlash, o'z navbatida, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish, mavjudlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonunchilik hujjatlarini bekor qilishni taqozo etadi. Sudlarda ishlarni ko'rib chiqishda inson huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va taraflarning tortishuvchanlik tamoyilini ro'yobga chiqarish bugungi kunda adolatli jamiyatning eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Muallif tomonidan maqolada sud bosqichlarida jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash muammosini ilmiy (doktrinal) asoslash va ilmiy tadqiqotning miqdoriy qismini yetarli darajada to'plash zarurligini hisobga olib, qabul qilingan huquqiy hujjatlar bilan bir qatorda, jinoiy odil sudlovga hissa qo'shayotgan shaxs, shuningdek, zamonaviy jinoiy sudlovning boshqa ishtirokchilari uchun jinoiy-protsessual xavfsizlik choralari sud amaliyotida samarali qo'llash muammosi haqida bir qancha fikr va mulohazalarga kelingan.

Kalit so'zlar: sud, xavfsizlik, himoya, kodeks, maxfiylik, ayblanuvchi, jabrlanuvchi.

ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ УЧАСТНИКОВ УГОЛОВНОГО СУДОПРОИЗВОДСТВА НА СУДЕБНЫХ СТАДИЯХ

Умархонов Азизхон Шарипхонович,
кандидат юридических наук, доцент,
самостоятельный соискатель Университета
общественной безопасности Республики Узбекистан

Аннотация. Усиление гарантий прав и свобод граждан, дальнейшее закрепление в законодательстве их личных, социальных, экономических и иных прав, обеспечение подлинной независимости и открытости системы правосудия в свою очередь требует принятия соответствующих нормативных правовых актов, внесения изменений и дополнений в существующие, а также отмены отдельных законодательных актов. Дальнейшее усиление гарантий прав человека при рассмотрении дел в судах и реализация принципа состязательности сторон сегодня является важнейшим звеном справедливого общества. Учитывая необходимость научного (доктринального) обоснования в статье проблемы обеспечения безопасности участников уголовного судопроизводства на судебных стадиях и достаточного накопления количественной части научного исследования, наряду с принятыми правовыми актами, эффективного применения в судебной практике мер уголовно-

процессуальной безопасности как для лица, вносящего вклад в уголовное правосудие, так и для других участников современного уголовного судопроизводства, было высказано несколько мнений и предложений по этой проблеме.

Ключевые слова: суд, безопасность, защита, кодекс, конфиденциальность, обвиняемый, жертва.

FUNDAMENTALS OF ENSURING THE SAFETY OF PARTICIPANTS IN CRIMINAL PROCEEDINGS AT THE JUDICIAL STAGES

Umarkhonov Azizkhon Sharipkhonovich,
Researcher of the University of Public Safety
Republic of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy, Associate professor

Abstract. Strengthening guarantees of citizens' rights and freedoms, further consolidation of their personal, social, economic, and other rights in legislation, and ensuring genuine independence and openness of the justice system, in turn, require the adoption of appropriate regulatory legal acts, amendments, and additions to existing ones, as well as the abolition of certain legislative acts. Further strengthening of human rights guarantees when considering cases in courts and the implementation of the principle of adversarial parties are today's most important links in a just society. Taking into account the need for scientific (doctrinal) substantiation in the article of the problem of ensuring the safety of participants in criminal proceedings at judicial stages and sufficient accumulation of the quantitative part of scientific research, along with the adopted legal acts. It was effective to apply measures of criminal procedural security in judicial practice, both for a person contributing to criminal justice and for other participants in modern criminal proceedings. Several opinions and considerations have been expressed on this issue.

Keywords: court, security, protection, code, confidentiality, accused, victim.

Kirish

Fuqarolarning jinoyat protsessida ishtirok etishi uchun xavfsiz sharoitlarni ta'minlash, agar bunga asoslar mavjud bo'lsa, butun jarayon davomida amalga oshirilishi lozim. Shu bilan birga, ishni ko'rib chiqish uchun tayinlash bosqichida davlat himoyasini ta'minlashning o'ziga xos xususiyati alohida ahamiyat kasb etadi. Tegishli muammolarni o'rganish jinoyat ishi bo'yicha fuqarolarning xavfsizlik huquqini amalga oshirish mexanizmining samaradorligini oshirishga qaratiladi.

Sudyaning jinoyat ishini ko'rish bo'yicha sud majlisiga tayyorgarlik harakatlari Jinoyat-protsessual kodeksi (bundan keyin matnda JPK) ning 49-bobi bilan tartibga solinadi. Jinoyat protsessining ushbu bosqichi jinoiy ishlarni sud muhokamasiga qo'yishga imkon bermaydigan o'ziga xos "filtr"dir,

bunda uni mohiyati bo'yicha hal qilish uchun qonun bilan belgilangan to'siqlar mavjud. Sudya unga kelib tushgan jinoyat ishi materiallari asosida sudgacha bo'lgan ish yuritishda barcha ko'rsatmalarga rioya etilishini, shu jumladan, jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlashni tekshiradi.

Sud bosqichlarida shaxsning jinoyat protsessida xavfsiz ishtirok etishini ta'minlash jarayoni jinoyat ishi bo'yicha sudgacha bo'lgan ish yuritishda namoyon bo'lishidan ushbu bosqichlarning umumiy shartlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Shu bilan birga, jinoiy sudlovni yuritishda yordam beruvchi shaxslarga qonunga xilof ta'sir ko'rsatish, ish materiallari tergovchi yoki sudya-da bo'lishidan qat'i nazar, butun ish yuritish davomida amalga oshirilishi mumkin. Shu munosabat bilan, nafaqat tergov, balki ishni

sudda ko'rib chiqishning barcha bosqichlarida ishtirok etish uchun tegishli xavfsiz sharoitlarni yaratish dolzarb sanaladi.

Sud jarayonlari jinoiy protsessual harakatlar boshlanishidan sud hukmiga qadar davom etishini hisobga oladigan bo'lsak, bu jarayon juda katta vaqtni o'z ichiga oladi. Bu vaqt ichida protsessual jarayon ishtirokchilarining xavfsizligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Material va metodlar

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash masalasini yoritishda mualliflik pozitsiyasi ishlab chiqilib jinoyat protsessida ishtirok etuvchi barcha ishtirokchilarning xavfsizligini ta'minlash chuqur tahlil etilib muhim xususiyatlari alohida ta'kidlandi. Ushbu maqola keng tarqalgan usullarni konseptual, nazariy va amaliy tushunishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi sud bosqichlarida jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash asoslarining nazariy va amaliy muammolarini tadqiq qilishdir. Tadqiqotning asosiy maqsadi sud bosqichlarida jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashda vujudga kelayotgan ba'zi muammolarni aniqlash va ularning oldini olish uchun amalga oshirishi kerak bo'lgan islohotlarni ishlab chiqish sanaladi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun ilmiy tadqiqotning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tizimli, formal-yuridik kabi bir qancha usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Sud bosqichlarida jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash jabrlanuvchilarning, guvohlarning va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilari hayoti, sog'lig'i hamda mol-mulkiga tajovuz tahdidi mavjud bo'lganda qo'llanadigan, jinoyatlarining oldini olishga yoki ularni fosh etishga ko'maklashadigan, xavfsizlik va ijtimoiy himoya qilish choralarini o'z ichiga oladigan chora-tadbirlar tizimini belgilashdan, shu-

ningdek, ularni qo'llashning asoslari hamda tartibini aniqlash imkonini beradi.

Shuning uchun ham, birinchi navbatda, bunday shaxslarga protsess ishtirokchilaridan qaysi birlari kirishini bilish muhim ahamiyatga ega. Negaki har qanday jinoiy protsess ishtirokchilarini xavfsizligini ta'minlash katta miqdorda xarajat talab qiladi.

2019-yil 14-yanvar kuni kuchga kirgan *"Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"*gi O'RQ-515-sonli qonun muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qonunning 4-moddasida himoya qilinishi kerak bo'lgan shaxslar doirasi keltirib o'tilgan. Ular quyidagilar:

- 1) jabrlanuvchi va uning qonuniy vakili;
- 2) guvoh;
- 3) jamoat ayblovchisi va jamoat himoyachisi;
- 4) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, ularning himoyachilari va qonuniy vakillari;
- 5) mahkum, oqlangan shaxs, o'ziga nisbatan jinoyat ishi tugatilgan shaxs;
- 6) fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar va ularning vakillari;
- 7) ekspert, mutaxassis, tarjimon va xolis.

Mazkur ro'yxatda ko'rib turganimizdek jinoiy protsessi ishtirokchilarining deyarli barchasi himoya qilinishi mumkin.

Himoya qilishning bir qancha usullari mavjud bo'lib, yuqoridagi qonunning 6-moddasida nazarda tutilgan usullar orqali amalga oshiriladi.

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligi jinoiy odil sudlovni targ'ib qilish bilan bog'liq bo'lib, jinoyat protsessining maqsadiga erishishga qaratilgan muhim asosiy prinsip sifatida raqobat shartlari bo'yicha jinoyat ishi materiallarini sud tomonidan ommaviy ko'rib chiqish sharoitida amalga oshiriladi.

Jinoyat ishini sud majlisida ochiq ko'rib chiqish O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi 137-moddasida mustahkamlangan. Shuni ta'kidlash kerak-

ki, Jinoyat-protsessual kodeksida oshkoralik alohida prinsip darajasiga ko'tarilgan va 19-moddada "Sudda jinoyat ishlari oshkor ko'rilishi" bilan mustahkamlangan. Bunday xulosa ushbu qonunning "Jinoyat protsessi prinsiplari" deb nomlangan ikkinchi bobida joylashgan va ushbu bobda an'anaviy jinoiy protsessual prinsiplari bilan bir qatorda o'rin olgan: 20-modda: "Jinoyat ishlari yuritiladigan til", 19-modda: "Sud muhokamasining oshkoraligi", 24-modda: "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining himoya qilish huquqini ta'minlash" va boshqalar.

Himoya qilinayotgan shaxsning ham sudgacha, ham sud protsessida xavfsizlik choralari amalga oshirishi jinoyat protsessida zarur protsessual tartib-qoidalarining ommaviy tarzda o'tkazilishini muqarrar ravishda cheklaydi. Agar sudgacha bo'lgan ish yuritish jarayonida, jinoyat ishini qo'zg'atish bosqichida yoki dastlabki tergovda tergov siri amalda bo'lsa (Jinoyat-protsessual kodeksining 353-moddasi), sud faoliyatida oshkoralik kabi umumiy shart amalga oshirila boshlaydi (19-moddasi). Shu munosabat bilan ilmiy adabiyotlarda sudlov faoliyatining prinsipi yoki umumiy sharti sifatida sud muhokamasining oshkoraligi mazmuni to'g'risidagi mu-nozaralar susaymaydi [1-3].

Shu munosabat bilan O.V. Dobrovlyalina sud majlisining ochiqligi sud va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlaydi, deb to'g'ri ta'kidlaydi. Bu sud tizimiga tarbiyaviy vazifani bajarish, masalan, jurnalistlarga ijtimoiy muammoni aniqlash va uni jamoatchilik muhokamasiga olib chiqish imkonini beradi [4, 148-154-b.].

Bundan tashqari, jabrlanuvchilar va guvohlar to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash maqsadida 2020-2021-yillarda umumiy yurisdiksiya sudlarini ushbu shaxslarni vizual kuzatish imkoniyatisiz so'roq qilish uchun maxsus xonalar bilan jihozlash choralari ko'rildi.

Mazkur dasturiy hujjatdan ko'rinib turibdiki, sud amaliyoti jinoyat ishi bo'yicha sud muhokamasining oshkoraligi va maxfiyligining oqilona, asosli muvozanatini o'rnatishga intilmoqda. Shu bilan birga, oshkoralikni cheklash jinoyat protsessida ishtirok etuvchi tomonlarning protsessual huquqlarini cheklashni anglatmaydi.

Jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash jarayoni nafaqat ochiq, balki maxfiy hamdir.

Himoya qilinayotgan shaxs xavfsizligining oshkoraligi jinoiy odil sudlovni rag'batlantirish munosabati bilan unga qonunga xilof ravishda ta'sir o'tkazish va shu bilan profilaktika funksiyasini amalga oshirishga potensial bo'lgan shaxslar e'tiboriga faktni yetkazish (uni davlat himoyasiga olish) bilan ifodalani-shi mumkin.

Ushbu faoliyatning maxfiy xususiyati ayniqsa jinoyat ishi bo'yicha sudgacha bo'lgan ish yuritishda yaqqol namoyon bo'ladi va Jinoyat-protsessual kodeksida sanab o'tilgan holatlarni isbotlashda dalillarni va boshqa ma'lumotlarni yashirish zarurati hisoblanadi. Isbotlash jarayoni, birinchi navbatda, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligi normallari bilan tartibga solinadi. Muayyan protsessual harakatlarni amalga oshirish ko'pincha "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi Qonun asosida boshqa narsalar qatorida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan protsessual harakatlar bilan birga yuzaga keladi.

Shu bilan birga, jinoyat-protsessual soha mutaxassislari jinoyat protsessida tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan samarali-roq foydalanish zarurligini haqli ravishda asoslab berishadi [5, 6].

Umumiy qoidaga ko'ra, dastlabki tergov ma'lumotlari oshkor etilmaydi. Bunday ma'lumotlarni oshkor qilishga yo'l qo'yil-masligi Jinoyat-protsessual kodeksining 353-moddasida belgilangan. Xuddi shu huquqiy normada ushbu ma'lumotlar omma-ga e'lon qilinishi mumkin bo'lgan istisnalar ro'yxati keltirilgan.

Bunday ruxsatni jinoyat ishini yurituvchi shaxs (tergovchi yoki surishtiruvchi) berishi mumkin. Aynan ular dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor etish mumkinligi to'g'risida qaror qabul qiladilar. Agar oshkor qilish dastlabki tergov manfaatlariga zid bo'lmasa va jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarining buzilishi bilan bog'liq bo'lmasa, bunga yo'l qo'yiladi.

Shu bilan birga, qonunda majburiy talab sifatida jinoyat protsessi ishtirokchilarining shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning rozilgisiz oshkor etishga rozilik olish, shuningdek, o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmagan jabrlanuvchining shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarga uning qonuniy vakilining rozilgisiz yo'l qo'yilmaydi.

A.D. Boykovning fikricha, tergov sirining predmeti tekshirishni talab qiluvchi tergov versiyalari, dalillarni to'plash usullari bilan bog'liq dalil va taktik ma'lumotlar bilan cheklanishi kerak. Shu bilan birga, dastlabki tergov siri sodir etilgan jinoyat fakti, uning oqibatlari, ish qo'zg'atilgan yoki ayblov e'lon qilingan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olmaydi [7, 17-b.]. Bundan ko'rindiki, tergov sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ro'yxatini to'ldirish lozim. Ko'rilgan xavfsizlik choralari (ularni tashkil etish, taktik chora-tadbirlar va boshqalar) to'g'risidagi ma'lumotlar, jinoyat protsessining himoyalangan ishtirokchilarining shaxsiy ma'lumotlari va davlat himoyasi va xavfsizlik choralari amalga oshiruvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar ham dastlabki tergov siri bo'lishi kerak. Bundan tashqari, bizning fikrimizcha, bu ma'lumotni sud bosqichlarida oshkor etish mumkin emas.

Shu sababli biz Jinoyat-protsessual kodeksining 353-moddasining dispozitsiyasini sir saqlash majburiyatini, shu jumladan, jinoyat protsessida ishtirokchilarning xavfsizligini ta'minlash jarayoni bilan bog'liq ma'lumotlarni ko'rsatish bilan to'ldirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Surishtiruvchi tomonidan hal qilinishi mumkin bo'lgan ishtirokchilar ro'yxati masalasi yoki tergovchining dastlabki tergov ma'lumotlarini oshkor qilishni taqiqlash to'g'risidagi qarori bahsli sanaladi. Masalan, Y.V. Fransifirovning fikricha, ayblanuvchi va gumon qilinuvchini dastlabki tergovni oshkor qilishni taqiqlash to'g'risida ogohlantirish imkoniyati to'g'risidagi hukm ularning himoyalaniş huquqiga mos kelmaydi [8].

Shu munosabat bilan ikki protsessual jarayon o'rtasida qarama-qarshilik mavjud bo'lib, bizningcha, bu jinoyat protsessining samaradorligini oshirish hamda shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish nuqtayi nazaridan yanada batafsil o'rganishni taqozo etadi. Bundan tashqari, ayblov va mudofaa funksiyalari teng ko'rsatilgan qarama-qarshilik jarayonini amalga oshirish majburiyatining mavjudligi ushbu jinoyat-protsessual funksiyalar vakillarining jinoyat-protsessual manfaatlari muvozanatini saqlashni nazarda tutadi. Aks holda, himoyaning isbotlashda ishtirok etish imkoniyatini cheklash, jarayon ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq maxfiy ma'lumotlardan foydalanishni cheklash, ayrim hollarda himoya qilish huquqining buzilishi sifatida baholanishi mumkin.

Shu bilan birga, agar boshqalarning huquqlarini himoya qilish manfaatlari buni talab qilsa, Konstitutsiyada shaxsning huquqlarini cheklash imkoniyati to'g'risidagi qoidalar mavjud. Xususan, Konstitutsiyasining 21-moddasi 3-qismida inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini cheklash imkoniyati belgilangan: "Qonun mamlakat mudofaasi va davlat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajada faqat konstitutsiyaviy tuzum asoslarini, boshqalarning axloqi, sog'lig'i, huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi". Shunday qilib, bizning fikrimizcha, himoyachining umuman himoya qilinadigan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish huquqini cheklash ko'rsatil-

gan konstitutsiyaviy qoidalarga zid bo'lmashligi kerak.

Ayblanuvchidan ish bo'yicha ma'lumotni yashirish uning dalillarni ko'rib chiqishda ishtirok etish huquqini ma'lum darajada cheklaydi. Sud instansiyasining oshkoraligi uni o'tkazishning bir qancha umumiy shartlaridan biridir. Sud muhokamasining ushbu umumiy shartining amalga oshirilishi yuqori sudning e'tiborini tortdi.

Shu tarzda Oliy Sud Plenumi qarorida sudlarga "asoslangan ajrim yoki ajrim chiqarish" tavsiya etiladi, unda protsess ishtirokchisi bo'lmagan shaxslarning, ommaviy axborot vositalari tahririyatlari vakillari (jurnalistlar)ning sud majlisi zaliga erkin kirishiga to'sqinlik qiluvchi aniq holatlar ko'rsatilishi kerak. Ishni yopiq sud majlisida muhokama qilish, agar u sud tomonidan o'tkazilgan bo'lsa, sud majlisining bayonnomasida va ish bo'yicha qabul qilingan sud qarorining kirish qismida ko'rsatiladi. Sudlar yopiq sud majlisidagi ish yuritish haqidagi ma'lumotlar hamma uchun ochiq bo'lishi kerakligini hisobga olishi kerak.

Tadqiqot natijalari tahlili

Jinoyat-protsessual xavfsizlik choralari ni amalga oshirishda himoya tomoniga isbotlashda ishtirok etish imkoniyatini berish muhim ko'rinadi. Bunday cheklashning qay darajada amalga oshirilishi ayblanuvchining himoya qilish huquqi yoki uning kafolati buzilganligi to'g'risidagi masalani hal qilishga bog'liq.

E'tibor berilsa, Jinoyat-protsessual kodeksining 270-moddasida belgilangan xavfsizlik choralari ro'yxati xavfsizlikni ta'minlashning turli usullarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ayrim xavfsizlik choralari isbotlash huquqini cheklash bilan bevosita bog'liq emas, boshqalari esa uni cheklaydi.

Boshqa hollarda jinoyat-protsessual qonun ayblanuvchining maxfiy ma'lumotlarga kirishini cheklaydi: aniqlangan shaxs tomonidan identifikatsiya qiluvchi shaxsning vizual nazoratidan tashqarida identi-

fikatsiyalash xavfsizlikni ta'minlash uchun ma'lumotlarni yashirishga qaratilgan. Shunday qilib, A.Y. Yepixin tergov izolyatori-ning kamerasida tergov harakati o'tkazilganda bunday identifikatsiyani o'tkazish amaliyotidan misol keltiradi. Bunday holda ayblanuvchi kamerada qo'shimcha shaxslar bilan birga bo'lgan va guvoh uni eshikdagi ko'rish tirqishidan aniqlagan [9, 45-b].

Taxallus ostida so'roq qilish jinoyat ishi materiallaridan himoya qilinayotgan shaxsning haqiqiy ma'lumotlarini olib qo'yish va ularga ruxsat etilmagan shaxslarning, shu jumladan, ayblanuvchi yoki himoyachining shaxsiga kirishini taqiqlash imkoniyatini belgilaydi. Ta'kidlash kerakki, ushbu jinoyat-protsessual xavfsizlik chorasi sudgacha hamkorlik shartnomasini tuzishda qo'llanadi, bu haqda ilmiy adabiyotlarda bir necha marta qayd etilgan [10, 45-46-b].

Himoya qilinayotgan shaxsning sud majlisida u to'g'risidagi shaxsiy ma'lumotlarini oshkor qilmasdan, vizual kuzatishni istisno qiladigan sharoitlarda so'roq qilish, bir qarashda, sudlanuvchining isbotlashda faol ishtirok etishiga imkon bermaydigandek ko'rinadi. Biroq JPK tomonlarning himoyalangan shaxsga savollar berish imkoniyatini beradi. Himoya qilinayotgan shaxsni kuzatish va uning shaxsini aniqlash imkoniyatini istisno qiladigan shartlarni sud majlisida sud tomonidan tashkil etish tartibi Jinoyat-protsessual kodeksining normalari bilan tartibga solinmaydi.

Ba'zi olimlar taxallus ostida so'roqdan foydalanishning to'g'riligi muhimligini, faqat yetarli shartlar va asoslar mavjud bo'lganda qayd etishadi. Masalan, G. To'laganova-ning ta'kidlashicha, amalda jabrlanuvchiga, guvohga va ish bo'yicha uning qarindoshlariga nisbatan xavfsizlik tahdidi bo'lmagan taqdirda taxalluslar berilgan [11]. Fikrimizcha, bu qonun normalariga ziddir, chunki Jinoyat-protsessual kodeksining 270-moddasiga muvofiq, tahdidning mavjudligi xayoliy emas, balki haqiqiy bo'lishi kerak.

Huquqni qo'llash amaliyotida himoyalangan shaxsni sud majlisida yashirishning turli usullari qo'llanadi. Misol uchun, bunday guvoh o'zining shakli va yuzini yashiradigan maxsus kiyim kiygan bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda, shu bilan birga, sud majlisida xavfsizlikni ta'minlashning bunday usulini amalga oshirishda alohida muammo himoyalangan shaxsning ovozining o'zgarishi sanaladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mudofaa tomoni vakillarining himoyalangan shaxsni ko'rish imkoniyati yo'qligi uning xavfsizligi uchun yetarli shart emas. Ilgari sudlar binolarida maxsus texnik vositalar bo'lmaganida, ovozni o'zgartirish metall krujka yordamida amalga oshirilgan, unda himoyalangan guvoh so'zlagan. Natijada uning ovozi o'zgargan [11].

Zamonaviy texnik vositalardan foydalanган holda sud majlisida himoya qilinayotgan shaxsning xavfsizligini ta'minlash va uning ish yuritishda ishtirok etish imkoniyati himoyachiga unga zarur savollarni berish va shu bilan isbotlashda ishtirok etish huquqini ta'minlash imkonini beradi.

Maxfiylik sharoitida so'roq o'tkazilayotganda raislik qiluvchi himoyachi tomonidan himoya qilinayotgan shaxsga qo'yilgan savollarning sifatiga alohida e'tibor berishi kerak: savollarning mazmuni uning sirini ochmasligi yoki shaxsini aniqlamasligi kerak.

Boshqa holatda himoyalangan shaxsni sudda so'roq qilishning boshqa usullari ma'lum. Himoyadagi shaxsning o'zi alohida xonada bo'lgan va uning shaxsiga ishonch hosil qilgan raislik qiluvchi tomonidan yozma ravishda savollar berilgan. Shu bilan birga, raislik qiluvchi taraflarning savollarini takrorladi va ularga himoya qilinayotgan shaxsning javoblarini berdi. Ushbu protsedura himoyalangan shaxsni uning ovozini tanib olishdan himoya qilish bilan bog'liq. Amalda ovozni o'zgartirish uchun himoyalangan odamning burniga kiyim pichog'i biriktirilgan holatlar mavjud. Ular uni ataylab duduqlanish, pichirlash va hokazolarni taklif qilishdi.

Shu bilan birga, sud majlisida himoya qilishning bunday nostandart usullari tizimli bo'lmagan xarakterga ega bo'lib, ayblov yoki sud ishtirokchilarining zukkoligi, ixtirosi asosida qo'llanadi. Hozirgi vaqtda yuzning ham ovozini, ham tashqi xususiyatlarini o'zgartirishga imkon beruvchi texnik vositalar mavjud (ko'rinadigan shovqinlarni yaratish) [12].

Eng muhimi, himoya tomoniga sud majlisi davomida himoya qilinayotgan shaxsga savollar berish imkoniyatini berishdan iborat. Aks holda, sudlanuvchining himoya qilish huquqi sezilarli darajada buziladi.

Xulosalar

Yuqoridagi holatlarni o'rganib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak, zamonaviy jinoyat protsessida davlat himoyasining murakkab va xilma-xil mexanizmi mazmunining jamoatchilik hamda maxfiy elementlarini ta'minlash va himoyalangan shaxslarning xavfsizligini ta'minlashning dastlabki bosqichidadir. Shu bilan birga, qonun chiqaruvchi jinoiy ish bo'yicha isbotlashda ayblov va himoya manfaatlarining muvozanatini o'rnatish istagini tasdiqlaydi.

Ushbu masalalar maqola davomida keng qamrovda o'rganib chiqilib, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashga oid mualliflar jamoasi shakllantirildi. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash uchun milliy qonunchilik o'rganib chiqildi.

Yuqoridagi holatlarni o'rganib chiqqan holda quyidagi takliflarni ilgari suramiz. Ya'ni Jinoyat-protsessual kodeksining 353-moddasining dispozitsiyasini sir saqlash majburiyatini, shu jumladan, jinoyat protsessida ishtirokchilarning xavfsizligini ta'minlash jarayoni bilan bog'liq ma'lumotlarni ko'rsatish bilan to'ldirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Sud tomonidan jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash choralari qo'llanishi uchun sud majlisini o'tkazish va sud qarori chiqarishning alohida tartibi, Aybga iqrorlik to'g'risidagi kelishuv tuzilgan

ayblanuvchiga nisbatan jinoyat ishi alohida ish yurituviga ajratilishi kerak.

Zamonaviy jinoyat protsessida davlat himoyasi va shaxsning xavfsizligini ta'minlash choralari amalga oshirish jarayonlari birlashtirilishi mumkin va birlashtirilishi kerak hamda ularni davlat huquqni muhofaza qilish va sud organlari faoliyatining yagona turi sifatida ko'rib, jinoyatchilik-

ka qarshi kurashda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadi yuzasidan muvozanat o'rnatish lozim. Shu bilan birga, jinoyat protsessida himoya qilinadigan shaxslarning huquqlarini amalga oshirishning jinoyat-protsessual va boshqa kafolatlariga katta ahamiyat berilishi kerak.

REFERENCES

1. Sabirov E.K. Sudlar faoliyati ochiqligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari [Organizational and legal basis for ensuring the openness of judicial activities]. PhD thesis. Tashkent, 2021.
2. Ernazarov M.M. Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda ish ko'rishning oshkoraligini ta'minlashning huquqiy asoslari [Legal basis for ensuring transparency of employment in criminal courts]. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences Innovative, Academy Research Support Center, 2022, December, vol. 2, iss. 13, pp. 55–60.
3. Bumagin A.N. Printsip publichnosti (otkrytosti, glasnosti) sudebnogo zasedaniya v konstitutsionnom prave Rossii i sosednikh stranakh: sravnitel'nyy analiz [The principle of publicity (openness, publicity) of judicial proceedings in the constitutional law of Russia and a number of foreign countries: comparative analysis]. *Constitutional and Municipal Law*, 2014, no. 8, pp. 72–76.
4. Dobrovlyanina O.V. Pravovoye regulirovaniye glasnosti sudebnogo zasedaniya v rossiyskom ugolovnom protsesse [Legal regulation of the publicity of the trial in the Russian criminal process]. *Actual Problems of Russian Law*, 2015, no. 1, pp. 148–154.
5. Polyakov M.P., Popov A.P. Rezul'taty operativno-rozysknoy deyatel'nosti kak povod i osnovaniye k vozbuzhdeniyu ugolovnogo dela. Interpretatsiya rezul'tatov operativno-rozysknoy deyatel'nosti v effektivnom ugolovnom protsesse [The results of operational-investigative activity as a reason and basis for initiating a criminal case. Interpretation of the results of operational-search activities in an effective criminal process]. Pyatigorsk, 2001.
6. Polyakov M.P., Ryzhov R.S. Ispol'zovaniye rezul'tatov operativno-rozysknoy deyatel'nosti v ugolovnom protsesse kak pravovoy institut [The use of the results of operational-investigative activities in the criminal process as a legal institution]. Moscow, 2006.
7. Boykov A.D. Glasnost' i pravosudiye [Publicity and justice]. *Soviet State and Law*, 1989, no. 8, p. 17.
8. Frantsiforov YU. V. Sochetaniye glasnosti i taynosti pri proizvodstve predvaritel'nogo rassledovaniya i sudebnogo razbiratel'stva [The combination of publicity and secrecy in the production of a preliminary investigation and trial]. *Law Practice*, 2007, no. 4.
9. Yepikhin A.Yu. Pravovoye regulirovaniye mer bezopasnosti uchastnikov ugolovnogo protsessa [Legal regulation of security measures for participants in criminal proceedings]. *Legality*, 2003, no. 5, p. 45.
10. Novikov S.A. Dosudebnoye soglasheniye o sotrudnichestve: razyasneniya polucheny, no problemy ostalis [Pre-trial agreement on cooperation: clarifications received, but problems remain]. *Russian Judge*, 2013, no. 2, pp. 42–46.
11. Tulaganova G.Z., Matmurotov A.R., Mavlanov K.T. Jinoyat protsessida shaxs xavfsizligini ta'minlash [Ensuring personal safety during criminal proceedings]. Tashkent, TSUL Publ., 2016, pp. 12–35.

12. Dmitrieva A.A. The ratio of publicity and confidentiality of the process of ensuring the safety of participants in criminal proceedings. *Bulletin of the South Ural State University. Series: Law*, 2015, vol. 15 (4), pp. 15–20. Available at: <http://www.mirtv33.ru/2011/03/4017/>

13. Umarkhonov A. Experience of the European Court of human rights in ensuring the safety of participants in criminal proceedings. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2023, vol. 5 (04), pp. 124–128. DOI: 10.37547/tajpslc/Volume05Issue04-19/

14. Umarxonov A.Sh. Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash choralarining tasniflanishi [Classification of measures to ensure the safety of participants in criminal proceedings]. *Yurist axborotnomasi – Lawyer herald*, 2023, no. 2, pp. 87–95. DOI: 10.26739/2181-9416-2023-2-12/

15. Umarkhonov A. Nekotoryye voprosy, svyazannyye s obespecheniyem bezopasnosti uchastnikov ugolovnogo sudoproizvodstva [Some issues related to ensuring the safety of participants in criminal proceedings]. *Obzor zakonodatel'stva Uzbekistana – Uzbekistan Legislation Review*, 2018, no. 2, pp. 61–63. Available at: https://inlibrary.uz/index.php/uzbek_law_review/article/view/12791/

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

2023-yil 2-son

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

BOSH MUHARRIR:

Rustambekov Islambek Rustambekovich

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,
professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,
dotsent

Mas'ul muharrir: O. Choriyev

Muharrirlar: Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,
Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Jurnal 26.06.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 17,7 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 36.

TDYU tipografiyasida chop etildi.